

OILA VA TASHQI IJTIMOY MUHITNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Egamberdiyeva Sh.D.

Oriental Universiteti o'qituvchisi

Sunnatova M.

Oriental Universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7947934>

Har qanday shaxs ijtimoiy muhitda yashar ekan, shubhasiz uning ijtimoiylashuviga o'sha ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi va maskan vazifasini bajaruvchi bir qancha muassasalar mavjud.

Shaxs ijtimoiylashuviga ta'sir o'tkazuvchi atrof-muhitni birlamchi va ikkilamchi ijtimoiylashuv maskanlariga ajratish mumkin. Oila muhiti har bir shaxs uchun ana shunday birlamchi, dastlabki ijtimoiylashuv o'chog'i, fan tilida aytilganda ijtimoiylashuv maskani hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek muhitida mahalla va ta'lim-tarbiya muassasalari ham birlamchi ijtimoiylashuv maskani sifatida qaralishi mumkin. Ijtimoiylashuvning ikkilamchimaskanlariga esa mehnat jamoalari, OAV, turli xil jamoatchilik tashkilotlari, Shuningdek, mehribonlik uylari, maxsus internatlar, harbiy bilim yurtlarida nisbatan uzoq vaqt mobaynida bolalarning tarbiyalanishini, o'sha yerning me'yorlari, qadriyatlari va talablari ta'sirida uning dunyoqarashi shakllanishi, o'sha yerdagi ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi hisobga olinsa, bu maskanlar ham ijtimoiylashuv maskanlari sifatida tan olinishi maqsadga muvofiqdir.

«Ijtimoiylashuv» atamasini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog F.G. Keddings insonlarga nisbatan qo'llagan. U o'zining «Ijtimoiylashuv nazariyasi» (1987) kitobida «ijtimoiylashuv individ tabiati yoki xarakterining rivojlanishi, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir», degan fikrni bildiradi.

Aytishimiz mumkinki, ijtimoiylashuv tushunchasi sof ijtimoiy-psixologik va sotsiologik kategoriya hisoblanib, ya'ni bu shaxsning uni o'rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, uning norma va qoidalarini o'zlashtirishga moyilligi va ularga bo'ysunishi, o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Bu tushunchaning umumiy ma'nosi shundayki, unda insonning tug'ilib, o'zini bevosita o'rab turgan tashqi muhit ta'sirida ulg'ayishi, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ijtimoiylashuv shaxs tomonidan ijtimoiy tajribalarga ega bo'lish, hayot va faoliyati davomida uni faol tarzda qo'llash jarayoni hisoblanadi.

Oila — bu maskanning ahamiyatini anglash uchun «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqolni tahlil qilishning o'zi kifoya. Ya'ni har qanday bola o'z oilasida o'zlashtirgan tajribalaridan hayoti davomida foydalanadi va uni keyinchalik o'z farzandlariga ham o'rgatadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy – nazariy asoslarga ko'ra, har qanday jamiyat taraqqiyoti sog'lom oila muhitiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Shubhasiz, oilada sog'lom muhit bo'lsa, ana o'shanda sog'lom – avlod tarbiyalanadi va kamol topadi. Ma'lumki, har bir dunyoga kelgan go'dakning dastlabki ijtimoiylashuvi oilada sodir bo'ladi. Aynan shu oila maskanida bola ijtimoiy muhitga moslashadi va oiladagi ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlarni o'zlashtiradi. Har bir farzand oilada kamol topar ekan, ushbu jarayonda u oilasining va oila a'zolarining o'zaro munosabatlaridan doimiy ravishda ibrat oladi. Shu asnosida u boshqa insonlarning xulq-atvori, xatti – harakatlarini o'rganadi va farqlay boshlaydi, shu tariqa ular bilan munosabatga kirishadi, muloqotga kirish usullari va shakllarini o'rganadi.

Albatta bola boshlang'ich ijtimoiylashuvni aynan oila bag'rida oladi. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari namunasida u boshqa insonlar bilan muloqot qilishni o'rganadi, bola ularning xulq – atvori va munosabatlar shakllarini anglab boradi va ushbu tushunchalar uning o'smirlik va balog'at yillarida ham saqlanib qolishi tabiiy.

Ota-onaning farzandini noto'g'ri xatti-harakatiga nisbatan reaksiyasi, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar xarakteri, oiladagi garmoniya yoki disgarmoniya darajasi, qondosh aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar xarakteri oilada va undan tashqarida bola agressiv xulq-atvorini belgilab beruvchi hamda uning balog'at yillarida atrofdagilar bilan quradigan munosabatlari- ga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatilganidek oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundan iboratki, shaxs katta va mustaqil hayotga, shu jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi. Birinchidan, shaxs o'ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama barkamol, yetuk, aqlli, sog' va salomat shaxs bo'lib kamol topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, oila va undagi sog'lom muhitda bola jamiyatda to'laqonli yashash, o'ziga o'xshagan shaxslar bilan muloqotga kirishib, murosa qilish, hamjihatlikda ish yuritish, kasb va hunarli bo'lib yetishish, muomalada ahloq-odob qoida va normalariga bo'ysunishni o'rganadi, psixologik jihatdan ham tayyorlanadi.

Rus sotsiolog olimi A.Antonovning ta'kidlashicha, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta'sirlarini ko'rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, xulq andozalarini egallaydi. Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo'lsa, uning normativ ta'siri ham shunchalik samarali bo'ladi. Bunday oilada o'zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va normalar hurmat qilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o'rgatilgan bo'ladi.

Albatta, bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi boshqa ijtimoiy omillar ham mavjud. Masalan, jamiyat miqyosida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatning yoshlar siyosati, ta'lim muassasalari va u yerlardagi ta'lim va tarbiya standartlari, diniy muassasalar (machitlar), bozor munosabatlari kabi qator jarayonlar ushbu masalaning mazmun va mohiyatini belgilaydi. Yuqorida aytilgan resotsializatsiya jarayonidan tashqari, oila muhitining o'zi ham ayrim holatlarda salbiy ma'nodagi ijtimoiylashuvga aloqador bo'lib qolishi mumkin. Olimlar o'tkazilgan qator tadqiqotlar asosida ana shunday omillarning to'rt guruhini ajratganlar:

- ota-onalar o'rtasida murosaning yo'qligi, oilaviy o'zaro munosabatlarni mustahkamlash borasida aniq belgilangan ahloqiy tamoyillarning mavjud emasligi;
- ota-onalarning ruhiy nosog'lomligi va qonunbuzarligi;
- yashash sharoitlarining yaxshi emasligi, bolaning to'laqonli o'sishi, dars tayyorlashi, jismonan chiniqishi uchun sharoitlarning yetarli emasligi;
- maktab sharoitining talab darajasida emasligi;
- mahalla xududida oila obro'sining yaxshi emasligi, notinch, noqobil oila maqomiga egalik;
- global axboratlashuv sharoitida turli axborot manbalari, jumladan, Internet tarmog'i orqali bola ongiga yetib kelayotgan turli ma'lumot, ig'vo, uydirma, mish-mish, oila qadriyatlariga zid axloq namunalari va boshqalar oxirgi yillarda bola ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy omillar jumlasidandir.

Yuqoridagi holatlar ayniqsa, globallashtirish davrida oila institutining bola sotsializatsiyasi va ijtimoiy tarbiyasidagi o'rnini nechoq'li sezilarli ekanligini isbotlamoqda.

Shaxs ijtimoiylashuvi muammosining milliy asoslari o'zbek psixologi, professor V. Karimova tomonidan juda chuqur tahlil etilgan bo'lib, unga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning dastlabki o'chog'i oila bo'lib, aynan ota-ona dastlabki ijtimoiy ko'nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charxlovchi insonlardir. Oilaviy munosabatlar bolani nafaqat shaxs sifatida o'zligini anglash, balki o'zini u yoki bu jins vakili sifatida idrok etish va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishga ham yordam beradi. Bizning kuzatishlarimiz shuni isbotlaydiki, oilaning to'liq bo'lishi, ya'ni ota-onaning o'zaro tinch-totuv yashashi, ular orasida me'yor, insoniy munosabatlar va sog'lom ma'naviyatning mavjudligi bolaning nafaqat jismoniy jihatdan salomatligini, balki ma'naviy va ruhiy jihatdan ham barkamol bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, har bir shaxs Vatan tuyg'usini tom ma'noda his qila olmaydi, qachonki oilaning jamiyatdagi o'rnini va funksiyalarini, qadr-qimmatini, Vatanning ostonadan boshlanishini anglab yetmagan bo'lsa. Ushbu ish asosan har bir o'zbek oilasidagi tarbiya an'analari va ularni takomillashtirish, milliy qadriyatlarni milliy turmush tarzining ajralmas bo'lagiga aylantirish, muloqot madaniyatining sharqona ko'rinishlari bilan zamonaviy shakllarini uyg'unlashtirish, mehnat tarbiyasi, uning farzandlari yaxshi, totuv turmush kechirishining muhim tamoyili sifatida qadrlanishiga erishish orqali amalga oshirish mumkin. Aytishimiz mukinki, har bir shaxs ongida oilaning muqaddasligi, Vatanning aslida oiladan boshlanishi, shu sababdan ham uni sevishtirish va nikohni muqaddas bilish zarurligini, oilaning jamiyat hayotida qanday o'rin tutganligi va funksiyalarini tushuntirish orqali ro'y berishida shaxsning barkamolligi inobatga olinadi.

References:

1. N.Ismoilova D.Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. O'quv qo'llanma. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2015. 65-bet
2. N.Ismoilova D.Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. O'quv qo'llanma. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2015. 59-bet
3. N.Ismoilova D.Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. O'quv qo'llanma. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2015. 66-bet
4. N.Ismoilova D.Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. O'quv qo'llanma. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2015. 66-bet
5. Социология семьи: Учебник / Под ред. проф. А.И. Антонова.- М.: ИНФРА-М, 2005 – С. 220
6. V.Karimova, O.Hayitov. Shaxsning ijtimoiylashuv muammosi. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2007. 73-bet